

38-DARS. PYTHONDA OPERATOR VA IFODALAR

Avvalgi darslarimizda **input()** va **print()** operatorlari yordamida ma'lumotlarni dasturga kiritish hamda natijani ekranga chiqarishning eng oddiy usullarini ko'rib chiqqan edik. Endi **input()** va **print()** operatorlarining boshqa ish usullari bilan tanishasiz.

BUNI BILASIZMI?



1. **input()** operatori qanday vazifa bajaradi?
2. **print()** operatori qanday vazifa bajaradi?
3. Ma'lumotlarni kiritishning qanday usullari mavjud?
4. Ma'lumotlarni chiqarishning qanday usullari mavjud?

Ma'lumotlarni kiritish usuli

split() usuli **input()** operatori orqali kiritilgan satrli ma'lumotlarni ajratuvchi belgi yordamida qismlarga ajratadi. Odatda, probel ajratuvchi belgi vazifasini bajaradi. Agar satr tarkibidagi qismlarni ajratish uchun boshqa belgi ishlataligan bo'lsa, u holda bu belgini **split()** qavslari ichida ko'rsatish kerak bo'ladi.

Sintaksisi:
split(sep)

split – operator (yoki funksiya);
sep – qiymatlarni ajratuvchi belgi.

Misol:

```
>>> a=input().split()  
book pen pencil notebook  
>>> print(a)  
['book', 'pen', 'pencil', 'notebook']
```

```
>>> a=input().split(';')  
5;8;7;1;2  
>>> print(a)  
['5', '8', '7', '1', '2']
```

Ma'lumotlarni chiqarish usullari

print() ma'lumotlarni ekranga chiqarish yoki faylga yozish vazifasini bajaradi. Ma'lumotlarni chiqarish usullari yordamida ma'lumotni ixtiyoriy ko'rinishda aks ettirish mumkin. Buning uchun **print()** operatorining to'liq sintaksisidan foydalanish mumkin.

print('natija', sep = ',', end= '')

sep = '' argumenti natija ma'lumotlarini ajratish uchun ishlataladi. Ma'lumotlarni ajratishning ikkita usuli mavjud: defis "-" (uning o'rniiga boshqa belgi ham qo'yish mumkin, masalan "+" yoki "*") hamda yangi satr (\n) belgisi orqali.

```
>>> a='Yulduz'  
>>> b='14'  
>>> c='years old'  
>>> print(a,b,c, sep='+')  
Yulduz+14+years old  
>>> print(a,b,c, sep='\n')  
Yulduz  
14  
years old
```


Eslab qoling!

end va **sep** **print()** funksiyasining argumentlari bo'lib, ma'lumotlarni chiqarish parametrlarini o'zgartirish uchun qo'llaniladi.

end= '' Natijaviy satr qanday belgi bilan tugashini belgilaydi.

68

IV BOB. DASTURLASH ASOSLARI